

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**SOATOV YUSUF XO‘JAYOR O‘G‘LI**

**HUDUDLARDA EKOLOGIK TURIZMNI SAMARALI  
RIVOJLANTIRISHDA TABIIY RESURLAR SALOHIYATINI  
BAHOLASH (Surxondaryo viloyati misolida)**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in Economic  
sciences**

**Soatov Yusuf Xo‘jayor o‘g‘li**

Hududlarda ekologik turizmni samarali rivojlantirishda tabiiy resurslar  
salohiyatini baholash (Surxondaryo viloyati misolida)..... 3

**Соатов Юсуф Хужаёр уғли**

Эффективное развитие экологического туризма в регионах путем  
оценки потенциала природных ресурсов (на примере  
Сурхандарьинской области)..... 29

**Soatov Yusuf Xo‘jayor o‘g‘li** Assessing the potential of natural resources  
in the effective development of ecological tourism in regions (a case study  
of Surxondaryo region)..... 57

**E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**SOATOV YUSUF XO‘JAYOR O‘G‘LI**

**HUDUDLARDA EKOLOGIK TURIZMNI SAMARALI  
RIVOJLANTIRISHDA TABIIY RESURLAR SALOHIYATINI  
BAHOLASH (Surxondaryo viloyati misolida)**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (DhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt3939 raqam bilan ro'yhatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Norchayev Asatullo Norbo'tayevich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Ahmedov Ikrom Akromovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor <b>Yo'lchiyev Asilbek Ortiqali o'g'li</b> iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Buxoro davlat universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 233-60-01; e-mail: tsue@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-28-72; e-mail: tsue@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

**A.A. Eshtayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida hududiy ekologik turizmni samarali rivojlantirish iqtisodiy o‘shishning ko‘pqirrali drayveri bo‘lib, bir tomondan, tabiiy kapitalni monetizatsiya qilish orqali mintaqalarda yangi qo‘shimcha qiymat zanjirlarini shakllantirsa, ikkinchi tomondan, bioxilma-xillikni saqlashga investitsiyalarni oshirib, “yashil” ish o‘rinlari va inklyuziv daromad manbalarini yaratadi. “Bugungi kunda global ekoturizm bozori 2023 yilda 232 mlrd AQSh dollari bo‘lib, 2033 yilga qadar 823 mlrd dollardan ortiq qiymatga yetishi, ya’ni yillik 13–14% atrofida o‘shishi prognoz qilinmoqda, bu esa sektorning ustuvor investitsiya jozibadorligini tasdiqlaydi. Turizm tarmog‘i hozirning o‘zida jahon mehnat bozorining taxminan 10% ini ta’minlab, eksport xizmatlarida muhim ulushga ega; ekologik yo‘naltirilgan turlar esa mahalliy qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va logistika kabi yondosh tarmoqlarda multiplikativ ta’sirni kuchaytiradi”<sup>1</sup>. Demak, hududlarda ekoturizmni tizimli qo‘llab-quvvatlash yalpi ichki mahsulotni diversifikatsiya qiladi, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rag‘batlantiradi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish jarayonida ustuvor strategik dastak sifatida namoyon bo‘ladi.

Jahonda so‘nggi yillarda global miqyosda asosiy turizm tarmoqlaridan biri bo‘lgan ekologik turizmning o‘shishi va barqaror rivojlanishiga oid ilmiy tadqiqotlar doirasi kengayib bormoqda. Ekologik turizmning ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va madaniy jihatdan ta’siri, barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida ekologik turizm iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, biologik xilma-xillikni saqlash va mahalliy aholi farovonligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim soha sifatidagi rolini oshirish, sayyohlik infratuzilmasini qayta ko‘rib chiqib, kam uglerodli, energiya tejamkor va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham keyingi yillarda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish borasida jahon turizmida ro‘y berayotgan tez o‘zgarishlarga moslashish maqsadida, ayniqsa, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali turizm infratuzilmasini takomillashtirish, turmahsulotlarning raqobatbardoshligini ta’minlash, turistik destinatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berildi. Mamlakatimiz ekologik turizm rivojlanishi uchun katta salohiyatga ega bo‘lib, mavjud tabiiy landshaftlar, muhofaza etiladigan hududlar, biologik xilma-xillik, qadimiy va tarixiy yodgorliklar ekoturizmni jadal rivojlantirish imkonini beradi. Ekologik turizm uchun tizimli yondashuv, barqaror infratuzilma, mahalliy aholi bilan integratsiyalashgan loyihalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda tabiiy resurslar salohiyatidan samarali foydalangan holda ekoturistik hududlarga tashrif buyurayotgan turistlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarni takomillashtirish maqsadida “Glamorous kemping”larni tashkil qilish va mavjud sayyohlik yo‘nalishlarini diversifikatsiya

---

<sup>1</sup>Yogesh Shinde ecotourism-market-news- 2024 yil 18-sentabrpp-18 .

qilish, ekohududlarga tashrif buyurayotgan turistlarga xizmat ko'rsatishda tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali tog'li hududlarda eksternal turizmni rivojlantirish va "jamping", "speleoturizm" kabi xizmat turlarini ishlab chiqish, ekohududlarda turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, shu jumladan, virtual ekskursiyalar, interaktiv xaritalar, dronlar orqali atrof muhitni kuzatish va qo'riqlanadigan hududlarda maxsus maydonchalarni yaratish, ekoturizm yo'nalishida tashrif buyurayotgan turistlar oqimining ko'p omilli ekonometrik modeli orqali uzoq muddatli prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2021 yil 9 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son farmonlari, 2024-yil 12-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-21-son, 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-son qarorlari va shu bilan birgalikda sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Turizmni rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishda xorijlik olimlardan J.Makens, Chris J.Bowen, Ryan, P.Kotler, D.Lundberg, Ch.Y.Gee, M.Krishnamurthy, D.Chey, J.C.Makens singari olimlarning ilmiy qarashlari ahamiyatlidir<sup>2</sup>. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning tadqiqotlarida turistik xizmatlarni ishlab chiqishning nazariy tomonlariga, uni rivojlantirish bosqichlariga, xizmatlarni tashkil etishga ta'sir qiluvchi omillarniga katta e'tiborni qaratgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) olimlari ham turizm sohasidagi muammolarni N.I.Kabushkin, I.T.Balabanov, A.M.Vetitnev, A.Yu.Aleksandrova, V.A.Kvartalnov, M.A.Jukova, M.B.Birjakov, D.S.Ushakov, M.N.Dmitriev, L.V.Baumgarten, L.B.Juravleva, A.V.Borisova kabi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarini bag'ishlagan<sup>3</sup>. MDHdagi olimlar o'zlarining tadqiqotlarida asosan

---

<sup>2</sup>Kotler P., Bowen J. Makens J. Marketing For Hospitality & Tourism Pearson International Edition 2014, USA., Chris Ryan. Recreational Tourism: Demand and Impacts/Channel View Publications, 2003. -358 p., Lundberg D., Krishnamurthy M. - Tourism Economics. New York: John Wiley Sons Inc. 2003. -210 p., Gee Ch. Y., Makens J.C., Chey, D. The Travel Industry. 3d. Wdit. -New York John Wiley Sons Inc. 2003. -250 p.

<sup>3</sup>Александрова А. Ю. Международный туризм. Учебное пособие для вузов. - М.: Аспект Пресс, 2001.- 464 с.; Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. - М.: Финансы и статистика, 2003. -176 с.; Биржаков М.Б. Введение в туризм. - Издание 9-е переработанное и дополненное. - СПб.: Издательский дом «Герда», 2007. -576 с.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: Учебник. 4-е изд., стереотип. - Минск: Новое знание,

mintaqalarda turizm infratuzilmasini yaxshilash orqali xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish va rivojlantirish jihatlarini tadqiq etgan.

Mamlakatimiz olimlaridan Q.X.Abdurahmanov, N.T.To'xliyev, M.Q.Pardayev, A.A. Eshtayev, A.M.Abduvohidov, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, D.X.Aslanova, B.N.Navro'z-zoda, O.M.Pardayev, B.H.To'rayev, O.H.Xamidov, B.Sh.Safarov, N.S.Ibragimov, S.S.Ro'ziyev<sup>4</sup> singari olimlarning ilmiy ishlarida turizm sohasini rivojlantirish, boshqarish, turistik resurslardan samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishga e'tibor qaratilgan.

Keltirib o'tilgan olimlar va ilmiy izlanuvchilarning tadqiqotlari sayohatlarni samarali tashkil etish, raqobatbardosh xizmatlarni ishlab chiqish, resurslardan maqsadli foydalanish, boshqaruvni samarali tashkil qilish va infratuzilmani takomillashtirishga yetarlicha hissa qo'shgan. Shuningdek, olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ekoturistik faoliyatni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish, hududlarda turizmni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, davlat-hususiy sheriklik asosida sohani rivojlantirish, tarmoqlarning mutunosibliigi kabi masalalar yetarli o'rganilmaganligi sababli sayyohlarga ekoturistik xizmatlarni xalqaro talablar darajasida tashkil qilish mexanizmlari bilan bog'liq omillarni tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Bozor raqobati iqtisodiyotdagi chuqur tarkibiy o'zgarishlar

---

2004. - 409 с.; Квартальнов В.А. Туризм: история и современность: Избранные произведения: В 4-х т. -М.: Финансы и статистика, 2002. - 499 с.; М.Н.Дмитриев, М.Н.Забаева, Е.Н.Малыгина. Экономик туристского рынка: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям сервиса и туризма. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. –311 с.; Л.В.Баумгартен. Управление качеством в туризме. Практикум: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2008. –288 с.; А.М. Ветитнев, Л.Б. Журавлева. Курортное дело: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. 528с.; А.В.Борисова. Курортное дело и оздоровительный туризм: учебное пособие. – Ярославл: ЯрГУ, 2009. -114 с.; Д.С.Ушаков. Экономика туристской отрасли: учебное пособие. – Ростов на Дону: «МарТ»; Феникс, 2010. -446 с.; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. -160 с.

<sup>4</sup>Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма: Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» в г. Ташкенте, 2013.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. -2006. -367 с.; Пардаев М.К., Атабаев Р. Туристтик ресурсларни тахлил қилиш ва баҳолаш. - Самарқанд: СамИСИ, 2006. -137 б.; Асланова Д.Х. Модели формирования туристского кластера за рубежом. //Сервис, 2013. - №1. -С: 4-9; Н.Навруз-зода Б., Ибрагимов Н.С., Навруз-зода З.Б., Навруз-зода Ш.Б. Туристтик худуд рақобатбардошлиги. Монография. Бухоро: "Sadridin Salim Vuxoriy" Durdoni nashriyoti, 2017 -156 б.; Пардаев О.М. Менеджмент. Ўқув қўлланма. – Т.: Фан ва технология, 2019. –248б.; Абдувоҳидов А.М.. Туризмда электрон бизнес. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ. Иқтисодийёт, 2020. -189 б.; Эштаев А.А. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида). DSc. диссертация автореферати – Самарқанд. 2019. Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма: -док.дисс. автореф., 2011.– 38 с.; Хамидов О.Х. Выбор конкурентной стратегии предприятия на рынке туристических услуг Узбекистана: канд. дисс. автореф, 2006. -22 с.; Сафаров Б.Ш. Миллий туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик-услубий асосларини такомиллаштириш: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – С.: СамИСИ, 2016. -254 б.; М.Т. Алиева. Иқтисодийётни эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари: икт.фан.док. дисс. автореф. – С.: СамИСИ, 2019. -77 б.; Ибрагимов Н.С. Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда дестинацион менежмент концепциясини қўллаш. – икт.фан.ном. дисс.автореф, 2008. –23 б; Рўзиев С.С. Ўзбекистон маданий туризм бозори ва унинг истиқболлари: – икт.фан.ном. дисс. автореф. 2009. –21 б.

sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari" (2024-2025 yy.) mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Surxondaryo viloyatida ekologik turizmni rivojlantirish istiqbollari qaratilgan ilmiy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

hududlarda ekologik turizmning o'ziga xos xususiyatlarini asoslash va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini ko'rsatib berish;

ekoturizmni boshqarish mexanizmining metodologik asoslarini takomillashtirish;

mintaqada turizm sohasining rivojlanish omillari va shart-sharoitlari, turizm infratuzilmasining rivojlanish holatini tahlil qilish;

Surxondaryo viloyatida ekologik turizm rivojlanishida tabiiy resurslarning salohiyatini aniqlash va uni baholash;

Surxondaryo viloyatini ekologik turizm uchun eng yaxshi yo'nalish sifatida targ'ib qilish strategiyalarini ishlab chiqish;

ekologik turizmning takomillashtirish va uning maqsadi bo'yicha to'rtta guruhdan iborat tasnifini ishlab chiqish;

ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ekologik turizmni rivojlantirishning SWOT tahlilini o'tkazish va uning kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlari, tahdidlarini aniqlash hamda ulardan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berish.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyatidagi mavjud ekoturistik hududlar faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmenti** ekoturistik ob'yektlar imkoniyatlaridan foydalanish, xizmat ko'rsatuvchi sub'ekt bo'lib faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, analiz va sintez, qiyosiy taqqoslash, mantiqiy va qiyosiy tahlil, zamon va makon, matematik va statistik, statistik guruhlash, SWOT-tahlil, iqtisodiy tahlilning an'anaviy modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ekologik turizm salohiyatini omilli baholashning mualliflik yondashuvi asosida "tabiiy-iqlim salohiyati" omillari guruhi (TIS = 3,5 ball), "tarixiy-madaniy salohiyat" omillari guruhi (TMS = 3,6 ball), "infratuzilmaviy salohiyat" omillari guruhi (IS = 2,9 ball), "kadrlar (mehnat) salohiyati" omillar guruhi (KS = 1,8 ball) orqali Surxondaryo viloyati tumanlarida ekologik turizmni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarni belgilash taklifi asoslangan;

Surxondaryo viloyatida joylashgan ekoturistik hududlarda festivallar o'tkazish, trek yo'llari, off-road marshrutlar tashkil etishdan iborat ekstremal turizm (Boysun, Darband, Sangardak), dor yo'llar, turistlar uchun xavfsiz platformalarni o'z ichiga olgan jamping (Darband, Bobotog' atrofidagi tog'lar), gidlar tayyorlash, ekologik

yoritish, ilmiy turizmni koʻzda tutuvchi speleoturizm (Teshik-Tosh, Zarautsoy, Amir Temur gʻori) turlarini kengaytirish istiqbollari asoslangan;

Surxondaryo viloyatining togʻ va togʻoldi zonalarini tabiiy-rekreatsiya, tarixiy-madaniy resurs salohiyatini baholash orqali barqaror rivojlantirish imkoniyatlariga koʻra tumanlarning resurs salohiyatini “yuqori”, “oʻrta” va “oʻrtachadan past” salohiyatli hududlarga ajratgan holda “birinchi guruh – birinchi bosqich”, “ikkinchi guruh – ikkinchi bosqich”, “uchinchi guruh – uchinchi bosqich tajribalarini oʻrganish asosida” sxemasi boʻyicha kichik turizm zonalarini tashkil etish taklifi ishlab chiqilgan;

Surxondaryo viloyatiga ekoturizm yoʻnalishida tashrif buyurayotgan turistlar oqimiga taʼsir koʻrsatuvchi koʻp omilli ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar prognoz koʻrsatkichlari ishlab chiqilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Surxondaryo viloyatining Koʻhitang togʻlari, Darband darasi, Boysun togʻli hududi va Tuzkoni tabiiy yodgorliklari kabi hududlarda ekologik yoʻlaklar (ekomarshrutlar) tashkil etish va infratuzilma, ekomehmonxonalar, yoʻl belgilar, dam olish maskanlarini rivojlantirish asoslangan;

viloyatning ekoturistik salohiyatini xalqaro koʻrgazmalar, sayyohlik yarmarkalari, ijtimoiy tarmoqlar, hujjatli filmlar va reklama mahsulotlari orqali keng sayyohlik oqimini yaratish, viloyatning ijobiy turistik imijini shakllantirish asoslangan;

ekologik turizm sohasida innovatsiyalarni qoʻllash mexanizmlarini takomillashtirish bu orqali hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish boʻyicha ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlar tarkibida innovatsion tavsifdagi tadbirlarning ulushini izchil ravishda oshirib borish asoslangan;

viloyatda ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash, uning rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillar va 2030-yilga qadar oʻrta muddatli prognoz parametrlari koʻp omilli ekonometrik modellarni qoʻllash asosida ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Turizm Tashkiloti (UN Tourism), Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qoʻmitasining rasmiy statistik maʼlumotlaridan keng foydalanilganlik, tadqiqotda qoʻllanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, olingan xulosalar, takliflar va ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning mutasaddi vazirliklar va tashkilotlar tomonidan maʼqullanganligi tadqiqotning ishonchlilik darajasini tasdiqlaydi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va metodologik asoslar respublikamizda raqobatbardosh turizm infratuzilmasini shakllantirish va ekologik turizm faoliyatini samarali rivojlantirishda, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali milliy turizm mahsulotlarining sifatini oshirishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Bu natijalar orqali respublikamizda ekologik turizmi rivojlantirishda

amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada chuqurlashtirish, ekoturistik xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari va rivojlanishning strategik dasturlarni ishlab chiqishda keng foydalanish mumkinligi uning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ularga asosan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi va viloyatlar hokimliklari amaliy faoliyatlarida, oliy o‘quv yurtlarida “Ekologik turizm“, “Turizm geografiyasi” va “Mintaqaviy turizm resurslari” fanlarining o‘quv dasturlarini takomillashtirish va o‘qitishda foydalanish mumkin anqligi tadqiqotning ishonchlilik darajasini tasdiqlaydi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Surxondaryo viloyatida ekologik turizmni rivojlantirish istiqbollarga qaratilgan ilmiy takliflar va tavsiyalar asosida:

ekologik turizm salohiyatini omilli baholashning mualliflik yondashuvi asosida “tabiiy-iqlim salohiyati” omillari guruhi (TIS = 3,5 ball), “tarixiy-madaniy salohiyat” omillari guruhi (TMS = 3,6 ball), “infratuzilmaviy salohiyat” omillari guruhi (IS = 2,9 ball), “kadrlar (mehnat) salohiyati” omillar guruhi (KS = 1,8 ball) orqali Surxondaryo viloyati tumanlarida ekologik turizmni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonining 1-ilovasi II – Barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishining 58-maqsadi va 59-maqsadlarida belgilangan vazifalarni yanada takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 20-maydagi 03-10-17-42-63 -sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amalga oshirilishi natijasida ekologik turizm salohiyatini omilli baholashning ko‘p omilli tizimi orqali Surxondaryo viloyati tumanlarida ekologik turizmni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash imkoni yaratilgan;

Surxondaryo viloyatida joylashgan ekoturistik hududlarda festivallar o‘tkazish, trek yo‘llari, off-road marshrutlar tashkil etishdan iborat ekstremal turizm (Boysun, Darband, Sangardak), dor yo‘llar, turistlar uchun xavfsiz platformalarni o‘z ichiga olgan jamping (Darband, Bobotog‘ atrofidagi tog‘lar), gidlar tayyorlash, ekologik yoritish, ilmiy turizmni ko‘zda tutuvchi speleoturizm (Teshik-Tosh, Zarautsoy, Amir Temur g‘ori) turlarini kengaytirish istiqbollaridan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonining 1-ilovasi II – Barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishining 58-maqsadi va 59-maqsadlarida belgilangan vazifalarni yanada takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 20-maydagi 03-10-17-42-63-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amalga oshirilishi natijasida

Surxondaryo viloyatining turistik faoliyat turlarini kengaytirish va ko'rsatiladigan turistik xizmatlar hajmini 1,8 baravar oshirishga imkon bergan;

Surxondaryo viloyatining tog' va tog'oldi zonalarini tabiiy-rekreatsiya, tarixiy-madaniy resurs salohiyatini baholash orqali barqaror rivojlantirish imkoniyatlariga ko'ra tumanlarning resurs salohiyatini "yuqori", "o'rta" va "o'rtachadan past" salohiyatli hududlarga ajratgan holda "birinchi guruh – birinchi bosqich", "ikkinchi guruh – ikkinchi bosqich", "uchinchi guruh – uchinchi bosqich tajribalarini o'rganish asosida" sxemasi bo'yicha kichik turizm zonalarini tashkil etish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmonining 1-ilovasi II – Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishining 58-maqsadi va 59-maqсадlarida belgilangan vazifalarni yanada takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 20-maydagi 03-10-17-42-63 -sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amalga oshirilishi natijasida Surxondaryo viloyatidagi ekoturistik hududlarda barqarorlik tamoyili asosida reytingi baholash orqali samarali boshqaruv dasturlari ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

Surxondaryo viloyatiga ekoturizm yo'nalishida tashrif buyurayotgan turistlar oqimiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'p omilli ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmonining 1-ilovasi II – Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishining 58-maqsadi va 59-maqсадlarida belgilangan vazifalarni yanada takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 20-maydagi 03-10-17-42-63 -sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amalga oshirilishi natijasida viloyatda mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, sog'lomlashtirish, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, sanatoriy va xalqaro umummavsumiy kurort zonalarini rivojlantirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishning o'rta muddatli istiqbollarini aniqlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta (shu jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika) ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Hammualliflikda 1 ta monografiya chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 141 betni tashkil etdi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari izohlab berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi boʻyicha maʼlumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Ekologik turizmning rivojlanishida tabiiy resurslarning ahamiyati”** nomli birinchi bobida, ekologik turizm rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari, ekologik turizmning turlari va uni tashkil etishda tabiiy resurslarning ahamiyati, ekologik turizmni rivojlantirishning xalqaro tajribalari oʻrganilgan. Shundan kelib chiqqan holda, ekoturizmni tashkil etish, xizmat turlarini shakllantirish va uni takomillashtirishni amalga oshirishni maqsad qilib olgan ekanmiz, eng avvalo iqtisodiyotni rivojlantirishning hozirgi bosqichda turizmning ahamiyatini oshirish lozim.

Ekologik turizmning jadal rivojlanishi insonlarning turli yoʻnalishlarda bilimlarini oshirishga boʻlgan ehtiyojlari, ularning intellektual darajasining ortib borishida oʻz aksini topadi. Jahon turizm bozorida ekologik turizmning ulushi yildan yilga oshib bormoqda. Xususan, 2023-yilda ekoturizmning umumiy turizm xizmatlari tarkibidagi ulushi 15%ni tashkil qildi<sup>5</sup>. Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar tashkilotining taraqqiyot dasturi (BMTTD maʼlumotlariga koʻra, 2023–2028-yillar oraligʻida ekoturizm bozorining oʻrtacha yillik oʻsish surʼati 16,1%ni tashkil etishi kutilmoqda<sup>6</sup>. Bu koʻrsatkichlar ekoturizmning jahon turizm industriyasidagi ahamiyati va ulushi ortib borayotganini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston xalqaro ekoturistik xizmatlar bozorida oʻzining noyob ekoturistik resurslarga boyligi, jumladan, ushbu sohani rivojlantirish boʻyicha boy va toʻliq foydalanilmayotgan salohiyatga egaligi boʻyicha jahonda 10-15 oʻrinni egallasa, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi oʻrinni egallaydi. Jumladan, mamlakatimiz hududida sakkiz mingdan ortiq tarixiy, noyob arxitektura va tabiiy yodgorliklar mavjudligi aniqlangan. Shu bilan birgalikda, mamlakatimiz tabiatining naftunkorligi, togʻ tizmalari, yirik suv havzalari, boy flora-fauna dunyosi va oid landshaftlariga ega ekanligi bilan ajralib turadi<sup>7</sup>.

Respublikamizdagi 9 ta qoʻriqxona, 2 ta milliy bogʻ, 9 ta davlat buyurtmalari, “Jayron” ekomarkazi, noyob tabiat yodgorliklarining mavjudligi katta ekoturistik potensialni taqdim etadi. Oʻzbekiston iqlimi, ob-havosi yil davomida dam olish va ekoturizmni rivojlantirish uchun qulayligi bilan ajralib turadi. Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax, Surxondaryo, Fargʻona, Toshkent viloyatlari oʻzlarining togʻ landshaftlari, gʻorlari, togʻ soylari va sharsharalari, buloqlari, koʻllari, muzliklari

<sup>5</sup> World Tourism Organization. <https://www.unwto.org/ru>

<sup>6</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/31/ecotourism/>

<sup>7</sup> Nuriddinova, Durdon. “Oʻzbekistonda turizmning rivojlanishi va unda transport xizmatlarining oʻrni”. xalqaro taʼlim, ijtimoiy va gumanitar fanlar jurnali. Finlyandiya akademik tadqiqot ilmiy nashriyoti 11, №. 7 (2023): 74-b.

bilan ekoturizm markazlariga aylanishlari mumkin. O‘rtacha balandlikdagi va baland tog‘larimizda yozda haroratning tekisliklarga nisbatan 5-10 (harorat) past bo‘lishi, qishining juda ham sovuq emasligi, qalin qor qoplarni vujudga kelishi bu hududlarimizdan yil davomida ekoturizm maqsadlarida foydalanish imkoniyatini beradi.

Ekoturizm va uning rivojlanishi bo‘yicha turli vaqtlarda bir qator tadqiqotchi olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ular tadqiqotlari natijasiga ko‘ra ekoturizmga izohlar bergan. Ekoturizmga berilgan izohlar sohaning murakkab va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi. Har bir ta‘rif ekoturizmning turli jihatlari va maqsadlarini takidlab, bu sohani yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ekologik turizm bo‘yicha bergan ta‘riflarini nazariy jihatdan tadqiq qilib, uning takomillashgan ta‘rifini ishlab chiqish uchun quyidagilarni inobatga olishni lozim topdik, atrof-muhitni muhofaza qilish, mahalliy aholining turmush tarzini yaxshilash, ekologik tizimlarni saqlab qolish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy va iqtisodiy jarayolarni qamrab oladi. Ekologik turizm tabiiy hududlarga, balki madaniy va ijtimoiy obyektlarga zarar bermasdan barqaror rivojlanishi kerak.

## 1-jadval

### Ekologik turizmga tadqiqotchilar tomonidan turli davrlarda berilgan ta‘riflar<sup>8</sup>

<b>Xorijiy tadqiqotchi-olimlar</b>	
M.B. Birjakov	Ekoturizmda tabiatga minimum ta‘sir qilib, tabiat bilan birga bo‘lish natijasida uning boyliklarini muhofaza qilish, asrab qolish tuyg‘ulari hosil bo‘ladi.
Seballos-Laskureyn G	Ekologik turizm – bu turistlar uchun tabiatni his qilish, jumladan, o‘simlik va hayvonot olamini muhofaza qilish bilan birgalikda ularni chuqur o‘rganish imkonini beruvchi atrof-muhitga ekologik jihatdan xavf tug‘dirmaydigan turistik sayohatlar majmuasi hisoblanadi.
T.S. Sergeyeva	Ekoturizm bu – mahalliy aholining an‘anaviy turmush tarzini saqlagan, xo‘jalik faoliyati kam ta‘sir qilgan betakror tabiiy hududlarni ko‘rish; bu – mahalliy aholining yashash darajalarini va turistik jarayondagi barcha qatnashuvchilarning ekologik madaniyati darajalarini oshirish, ekologik tur va dasturlarda tabiat muhofazasi me‘yorlari va texnologiyalariga rioya qilishdir.
Xrabovchenko V.V	Ekoturizm – bu tabiatni asrash bilan birgalikda barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan rekreatsion va turistik xizmat shaklidir
Lukichev A.B	Ekologik turizm – bu turistik xizmatlar ko‘rsatish davomida atrof-muhitning to‘laligicha xavfsizligini ta‘minlaydigan xizmatdir.
<b>Mamlakatimiz tadqiqotchi-olimlari</b>	
X.M.Mamatqulov	Ekologik turizmni; talablariga ko‘ra insonni tabiatga minimal ta‘sir o‘tkazishi ta‘minlanishi, ya‘ni ziyon yetkazmasligi, tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga turistlarni qiziqishlarini orttirish ko‘zda tutiladi
Tuxliyev N	Ekoturizm bu– quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladigan turistik xizmatlarni anglatadi: yovvoyi tabiatni sayohat qilish; tabiatga minimal darajada ta‘sir ko‘rsatish; ekologik ta‘lim olish; tabiatni muhofaza qilishni qo‘llab-quvvatlash; ekologik tadbirlardan mahalliy aholining qo‘shimcha daromadlarini shakllantirish.
A.N.Norchayev, E.T.Rabbimov	Ekoturizm bu sayohat muhitning ahvoli yomonlashishigina emas, balki mashhur hordiq chiqarish joylari-tog‘ bag‘ridagi kurortlar, iliq dengizlarning qirg‘oqlari, tekisliklar va o‘rmonzorlarning samarali foydalanish hamdir.

<sup>8</sup> Muallif tomonidan tadqiqotchi-olimlarning ilmiy fikrlari jamlangan .

Yuqoridagi tadqiqotchi-olimlarning fikr mulohazalari natijasida biz tomonimizdan quyidagicha ta'rifni keltirish maqsadga muvofiq deb bildik. *Ekologik turizm, bu atrof-muhitni muhofaza qilish va mahalliy aholining turmush tarzini yaxshilash va ekologik tizimlarni saqlab qolish bilan bog'liq iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklarga ega bo'lgan doimiy o'zgarishda bo'lgan faol harakat turidir*<sup>9</sup>.

Mamlakatimizda turizm rivojlanishi tahlillarning ko'rsatishicha tashrif buyurgan xorijlik sayyohlar soni 2017- yildan boshlab 2019- yilgacha yuqori sur'atda o'sib borganligini ko'ramiz mumkin, lekin 2020- yil mart oyidan boshlab COVID-19 pandemiyasi sababli sayyohlik xarakterlar keskin darajada kamayishi natijasida 2020-yildan tashriflar soni keskin kamayib ketdi. 2017-yilda mamlakatimizga xorijiy turistlar tashrifi 2,690 ming, 2018- yilda 5,346 ming, 2019-yilda 6,748 ming, 2020 -yilda 1,504 ming, 2022- yilda 1,881ming, 2022 -yilda 5,232 ming, 2023-yilda 6,626 ming, 2024-yilda 6,834 mingtani tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.


Statistik ma'lumotlarda ko'rinib turganidek 2020-yilga nisbatan 2024-yilda o'sishning yuqori darajasining vujudga kelishiga sabab, pandemiyadan keyin olib tashlangan cheklovlar natijasida turistlar xarakterining jonlanishi bo'ldi. Turistlar pandemiyadan keyin yana avvalgidek o'zlarini erkin tutgan holda (havsizlikni esdan chiqarmagan holda) sayohatlarga chiqa boshladi.

O'zbekistonga tashrif buyurayotgan sayyohlarni va ular kelayotgan mamlakatlar bo'yicha tahlillarni olib borishda qaysi mintaqalardan qanday maqsadlarda amalga oshirishda chalkashliklarga yo'l qo'yishni kamaytirish maqsadida tashqi turizm bozorini uch qismga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq degan xulosaga keldik. Bulardan birinchisi turizm bozorida yaqin qo'shni mamlakatlardan tashrif buyurgan sayyohlar, ikkinchi turizm bozorga esa MDH (Mustaqil davlatlar hamdo'stligi) va, uchinchi turizm bozoriga uzoq xorijiy mamlakatlarni kiritdik. Olib borilgan tadqiqot va tahlillar ko'rsatishicha asosiy turistlarni so'nggi yillarda birinchi turistik bozorga mansub davlatlar tashkil qilganligini, bu bozorning imkoniyatlari kattaligidan dalolat bermoqda.

MDH va yaqin qo'shni davlatlardan tashrif buyurgan turistlar soni 2024-yilda, jumladan, Qozog'istondan 1433,3 ming, Tojikistondan 2165,2 ming, Qirg'izistondan 1857,7 ming, Turkmanistondan 101,3 ming, Rossiya Federatsiyasidan 720,3 ming, Ukrainadan 13,8 ming, Ozarbayjondan 15,7 ming, Belarusiyadan 17,8 ming, Armanistondan 3,4 ming kishini tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Tashrif buyurayotgan turistlarning yo'nalishlar bo'yicha sigmentatsiyasini va baholashni tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan Surxondaryo viloyati bo'yicha o'tazishni maqsadga muvofiq deb bildik. Tadqiqotimiz va kuzatishlarimiz ko'rsatishicha Surxondaryo viloyatida ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari mualliflik yondashuvi asosida to'rtta asosiy salohiyatli guruh orqali baholanadi: tabiiy-iqlim salohiyati, tarixiy-madaniy salohiyat, infratuzilmaviy salohiyat hamda kadrlar (mehnat) salohiyati.

---

<sup>9</sup> Muallif tomonidan ekoturizmga berilgan ta'rif.



**1-rasm. Surxondaryo viloyatida ekologik turizm salohiyatini omillar asosida baholash<sup>10</sup>.**

Tabiiy-iqlim salohiyati (TIS = 3,5 ball) Surxondaryo viloyatining Boysun tog‘lari, Darband darasi, Surxon qo‘riqxonasi, Sherobod tumani Hisor tog‘ tizmasi, Sariosiyo tumani tog‘li hududlari, Oltinsoy hududlari o‘zining tabiiy rekratsion resurslari bilan xorijiy va mahaliy turistlar tashrifi yildan yilga oshmoqda.

Tarixiy-madaniy salohiyat (TMS > 3,6 ball) viloyatda Termiz shahri – asosiy tarixiy markazlaridan biri bo‘lib Fayoztepa, Qoratepa, Dalvarzintepa, va Sherobot tumanidagi Zarautsoy qoyatosh rasmlari, Boysun Bahori festivali, Sherobod tumanidagi Abu-Iso at Termiziy maqbarasi, shuningdek Sulton Saodat majmuolari madaniy-tarixiy turizm rivojlanishida o‘rni beqiyosdir.

Infratuzilmaviy salohiyat (IS = 2,9 ball) Termiz eng yuqori infratuzilmaviy salohiyatga ega hudud, xalqaro darajadagi turizmni qabul qilmoqda, Denov ichki turizm uchun qulay va imkoniyatlarga boydir. Qumqo‘rg‘on va Sarosio va Boysun tabiiy va madaniy salohiyatga ega bo‘lishiga qaramay, infratuzilmada hali to‘liq imkoniyatlar mavjud emas. Bu hududlarda transport, mehmonxona, aloqa infratuzilmalari ayrim hududlarda rivojlangan bo‘lsa-da, tog‘li tumanlarda kamchiliklar mavjud.

Kadrlar (mehnat) salohiyati (KS = 1,8 ball) ekoturizmga ixtisoslashgan professional gidlar soni juda kam. Tog‘li yoki tarixiy obyektlar bo‘yicha maxsus bilimga ega mutaxassislar mavjud emas. Ingliz, rus yoki boshqa xorijiy tillarda xizmat ko‘rsatish darajasi juda past.

Surxondaryo viloyatining turizm resurslari va infratuzilmasi tahlili ko‘rsatishicha, viloyatda joylashtirish vositalari soni 220 ta, shuningdek tarixiy-arxeoloik yodgorliklar 129 ta va ekologik-rekratsion resurslar 74 tano tashkil qilmoqda. Viloyatda milliy etnogfik resurslar 89 tani, ko‘ngil ochar madaniy obyektlar soni 50 ta tashkil qilmoqda.

<sup>10</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Mintaqa mavjud turistik resurslarning umumiy holati<sup>11</sup>

Shahar va tumanlar	Mintaqa resurslarning umumiy holati				
	JV	TY	ERR	MER	KMO
Boysun	56	15	12	10	4
Sariosiyo	35	8	10	7	3
Uzun	3	7	9	6	3
Sherobod	13	11	9	9	5
Denov	17	14	7	8	6
Oltinsoy	4	10	6	6	3
Termiz	54	19	6	13	7
Temiz tumani	17	13	4	10	3
Jarqo'rg'on	2	7	3	4	2
Qumqo'rg'on	3	6	2	4	4
Sho'rchi	3	7	3	3	3
Muzrabot	1	4	2	2	2
Angor	1	3	2	2	2
Qiziriq	1	3	1	3	2
Bandixon	1	2	1	2	1
<b>Jami</b>	<b>220</b>	<b>129</b>	<b>74</b>	<b>89</b>	<b>50</b>

**Izoh.** **JV**- Joylashtirish vositalari, **TY**- Tarixiy- arxeoloik yodgorliklar, **ERR**- Ekologik-rekratsion resurslar, **MER**- Milliy etnografik resurslar, **KMO**- Ko'ngil ochar madaniy obyektlar

Mintaqani turizm salohiyati jozibadorligini o'rganish natijasida 4 ta turizm turlari rivojlangan hududlar tashkil etishni taklif qilamiz:

joylashtirish vositalari salohiyati yuqori bo'lgan hududlar - Boysun, Sariosiyo, Termiz, Sherobod, Denov tumanlarida turizmning an'anaviy va zamonaviy turizm turlarini tashkil qilish, qadiriylarga asoslangan tarixiy, ziyorat etnografik turizm turlarini rivojlantirish;

ekologik-rekratsion resurslar yuqori hududlar -Boysun tumanida Zovboshi tog'li hududi, shuningdek Darband qishlog'ida, Sherobot tumani Xatak qishlog'ida shuningdek Bobotog' hududlarida ekestermal turizmni davlat hususiy sherikchilik asosida rivojlantirish. Sariosiyo Xonjiza tog' bag'irlarida shuningdek Sangardak qishlog'ida To'palang Surxon suv, Degrez suv omborida, Vaxshivor, Chinor qishloqlari Uzun tumani hududlarida ekoturizmni rivojlantirish va yondosh qilshloqlarda ekoqishloq tashkil qilish;

tarixiy-madaniy resurslari jozibadorligi yuqori hududlar - Termiz hududida Qirqqiz qa'lasini, At-Termiziy, Sulton Saodat, Sherobot tumanida joylashgan Imom Termiziy, Kokildor ota, Oltinsoy tumanidagi So'fi Olloyor Xo'jaipok ota ziyoratgohlari, Qiziriq tumanidagi Takiya ota kabi ziyorat turizmini rivojlantirishda allomalar hayotini targ'ib qilishda tarixiy-madaniy kinolar ishlash;

Omonxona qishlog'ida joylashgan Omonxona shifobaxsh bulog'i va Sherobot

<sup>11</sup>Muallif tomonidan tadqiqot natijasida jamlangan.

tuz koni, G‘o‘rin buloq, Oltinsoy tumanidagi Xo‘jaipok ota bulog‘i hamda Jarqurg‘on hududlarida Hidrozel suvlaridan unimli foydalangan holda tabobat turizmini rivojlantirish va shifobaxsh suvlar brendini yaratish.

Dissertatsiyaning **“Ekologik turizm rivojlanishining shart-sharoitlari va zamonaviy tendensiyalari”** - deb nomlangan ikkinchi bobida so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining barqaror va diversifikatsiyalashgan yo‘nalishda rivojlanishiga alohida e‘tibor qaratilgan. Shu bilan birgalikda Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurgan turistlarning tahlili olib borilgan. Viloyatga 2019-yilda 823,502 nafar turist tashrif buyurgan bo‘sa pandemiyaning salbiy oqibatida 2020-2021yillar turistlar soni kaymaygan. 2024-yilda turistlar soni 986,816 nafarni tashkil etgan. Viloyatida turizm sohasini rivojlantirish, turizmni rivojlantirish yo‘nalishidagi davlat dasturlari doirasida amalga oshirilmoqda. Mazkur dasturlarni amalga oshirishga qaratilgan tezkor chora-tadbirlar viloyatda turizm tarmog‘ining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan. Qabul qilingan qator chora-tadbirlar natijasida 2024 yilda turistik xizmatlar hajmi 53528,9 mln. so‘m, ya‘ni 2019 yilga nisbatan 34,5 %ga oshgan. Bugungi kunda viloyatda joylashtirish vositalari o‘shish dinamikasiga qarasa, mehmonxonalar 2019- yilda mavjud bo‘lgan mehmonxonalar soni 33 ta bo‘lgan bo‘lsa 2024-yilga kelib ularning soni 52 taga etgan.

Surxon vohasi qadimdan buyuk ipak yo‘li chorraxsida joylashgan bo‘lib tarixiy- madaniy va arxelogik resurslarga boy mintaqadir. Bugungi kunda viloyatda ekoturistik obyektlar soni ham yildan yilga oshmoqda 2019 yilda 38 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib ularning soni 74 tani tashkil qilmoqda.

### 3-jadval

#### Surxondaryo viloyatida turizm sohasining rivojlanish ko‘rsatkichlar dinamikasi<sup>12</sup>

Ko‘rsatkichlar	Yillar					
	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Tashrif buyurgan turistlar (ming. kishi)	823,502	62,155	185,302	653,996	867,906	986,816
Turistik xizmatlar hajmi (mln. so‘m)	39809,1	25355,3	28463,7	34892,9	47265,5	53528,9
Joylashtirish vositalari (mehmonxonalar)	33	46	51	49	50	52
Ekoturistik obyektlar soni, dona	38	41	46	62	68	74

Hudud qanchalik turistik obyektlarga boy hisoblansa-da, rekreatsiya va ekoturizm resurslariga xorijdan talab kam ekanligini ko‘ramiz mumkin. Ichki turistlar uchun esa bu mavsumiy ekanligini izlanishlarimiz ko‘rsatdi. Madaniy va

<sup>12</sup> Surxondaryo viloyati Turizm boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

etnografik turizm salohiyati viloyatda o'rtacha foydalanish darajasi esa past. Tarixiy, me'moriy va arxeologik resurslari boy bo'lsada chet eldan sayyohlarni qiziqishi o'rtacha ekanini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ekologik va ekstremal turizm turlari global miqyosda talabgir yo'nalishlarga aylangan bir paytda, mamlakatimizning noyob tabiiy hududlaridan biri bo'lgan Surxondaryo viloyati ekoturistik salohiyati bilan ajralib turadi. Bu hududning geologik, biologik va madaniy xilma-xilligi uni nafaqat ichki, balki xalqaro turizm bozori uchun ham jozibador maskanga aylantiradi. Viloyatning Boysun, Darband, Sangardak, Bobotog', Teshik-Tosh va Zarautsoy kabi hududlari ekstremal va ilmiy turizmning turli shakllarini joriy etish uchun keng imkoniyatlarga ega. Jumladan, off-road marshrutlar, tog'li trek yo'llari, dor yo'llar, xavfsiz jamping platformalari, hamda speleoturizm (g'orlar asosida ilmiy-ekologik turizm) yo'nalishlarini rivojlantirish orqali nafaqat infratuzilmaviy, balki iqtisodiy va ijtimoiy o'sishga ham erishish mumkin. Shuningdek, gidlarni tayyorlash, mahalliy aholini turizm xizmatlariga jalb etish va ekologik yoritish kabi chora-tadbirlar orqali mintaqaning turistik brendini shakllantirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birgalilda viloyatning ekoturistik hududlarda festivallar o'tkazish, trek yo'llari, off-road marshrutlar tashkil etishdan iborat ekstremal turizm (Boysun, Darband, Sangardak), dor yo'llar, turistlar uchun xavfsiz platformalarni o'z ichiga olgan jamping (Darband, Bobotog' atrofidagi tog'lar), gidlar tayyorlash, ekologik yoritish, ilmiy turizmni ko'zda tutuvchi speleoturizm (Teshik-Tosh, Zarautsoy, Amir Temur g'ori) turlarini kengaytirish misolida tahlil qilingan hamda ekologik turizm salohiyatiga baho berilgan.

Mazkur tadqiqotda Surxondaryo viloyatining tog'li va tabiiy-himoyalangan hududlarida ekstremal va ekologik turizm yo'nalishlarini kengaytirish imkoniyatlari, ularning iqtisodiy samaradorligi, xavfsizlik choralari, infratuzilmaviy talablar va xizmatlar tizimi atroflicha o'rganiladi. Xususan, Darband, Bobotog', Teshik-Tosh va Zarautsoy g'orlari kabi hududlarda ekstremal turizmning zamonaviy turlarini joriy etish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda xalqaro turistlar oqimini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy va strategik takliflar ishlab chiqildi.

Surxondaryo viloyatida mavjud ekohududlarda raqamli texnologiyalarini keng joriy qilish tadqiqotning asosiy vazifalaridan biridir. Boysun tog'lari, Darband darasi, Sariosiyo va Zarautsoy qoyatosh rasmlari kabi joylar innovatsilarni joriy qilish jumladan; ekohududlarda mehmonlar uchun showroom, virtual ekskursiyalar tashkil qilish hamda "virtual gid" xizmatini joriy qilish 3D formatdagi videolar, interaktiv xaritalar va fotogalereyalar takliflari berildi. Turizmda raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi xorijiy (Avstraliya, Kanada ekohududlarida) tajribalar asosida;

VR (Virtual Reality) texnologiyalarini jalb qilish;

360 darajali videolar yordamida ekohududlar bo'ylab to'liq immersion (botish hissi) virtual sayohatlar yaratilish;


viloyatdagi o'quv muassasalari va turistik firmalar bilan hamkorlikda VR uskunalari sinov tariqasida joriy qilish;

VR ekskursiyalar ekologik zarar yetkazmasdan katta auditoriyani jalb qilish; imkoniyati cheklanganlar uchun hududlardagi tabiiy go‘zalliklarni virtual kuzatish imkoniyatini yaratish;

Surxondaryo viloyatining noyob flora va faunaga boy, ekologik meros ob’ektlarini raqamlashtirish va ularni saqlash, targ‘ib qilish, marketing va xalqaro integratsiyani ta’minlash;

virtual ekskursiyalarni Youtube, Google Earth, TripAdvisor, AirPano kabi xalqaro platformalarga joylashtirish;

virtual turlar orqali Surxondaryoni UNESCO, ECO turizm platformalari orqali targ‘ib qilish orqali xorijiy sayyohlar tashrifini oshirib borish.



**2-rasm. Surxondaryo viloyatida joylashgan ekoturistik hududlarda turizm turlarini kengaytirish istiqbollari<sup>13</sup>**

Surxondaryo viloyati mamlakatimizda o‘zining tabiiy, tarixiy, arxeologik va ekologik resurslarga juda boyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Boysun tog‘ tizmasi, Darband darasi, Teshiktosh g‘ori va Zarautsoy petrogliflari ekstremal va speleoturizm turlarini joriy etish uchun qulay hisoblanadi. Ekstremal turizm, jumping va speleoturizm yo‘nalishlarini Surxondaryo viloyatida turizm sohasini kompleks asosda rivojlantirish va xalqaro raqobatbardoshligini oshirish, ichki turizmni faollashtirish hamda yangi ish o‘rinlarini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda viloyatda turizmni rivojlantirish uchun bir qator tavsiyalarni ishlab chiqdik, jumladan:

viloyatida joylashgan turistik obyektlarga transport turlarini muntazam qatnovini ta’minlash, shuningdek, yashil energitikani takomillashtirish;

joylashtirish xizmatlarida sifatini oshirish va joylarda muqobil elektr

<sup>13</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


manbaalarini joriy etish;

